

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLIQOVA LAYLO FAXRIDDINOVNA

**FILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING TADQIQOT
QOBILIYATINI LOYIHA ASOSIDA O'RGANISH METODI ORQALI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

UDK: 785.378.37.013.2.

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Xoliqova Laylo Faxriddinovna

Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish..... 3

Холикова Лайло Фахриддиновна

Развитие исследовательских навыков у студентов филологических направлений через проектное обучение 25

Holikova Laylo Fakhriddinovna

Developing students' research skills through project based learning in the philological directions 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLIQOVA LAYLO FAXRIDDINOVNA

**FILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING TADQIQOT
QOBILIYATINI LOYIHA ASOSIDA O'RGANISH METODI ORQALI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped2609 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdhti.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Babaniyozova Nargiza Po'latovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 4 » oktyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-42. faks: (99866) 239-12-29; e-mail:info@samdhti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61532 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «22» sentyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «21» sentyabr da 83 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signatures in blue ink]

D.A.Kiselev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, dotsent

G.K.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va intilishni yanada kuchaytirmoqda hamda turli murakkab masalalarda ilmiy izlanishlar olib borishga qodir yuqori malakali tadqiqotchi kadrlar tayyorlashga talab oshmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyiha asosida o'qitish, integrativ yondashuvlar asosida ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida talabalarning tadqiqot qobiliyati hamda shaxsiy rivojlanishining o'zaro aloqadorligini o'rganish, kommunikatsiya tizimlarining nazariy metodologik asoslarini rivojlantirish, yangi ta'lim standartlarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirish, talabalarning tadqiqot qobiliyatini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim muassasalarida o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish, bo'lajak mutaxassislarining bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish, keng qamrovli yondashuvlar asosida talabalarning xorijiy til ko'nikmalari bilan birgalikda tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish hamda talabalarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi dasturlarni ilmiy asoslangan holda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tillarni o'qitishga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etishga hamda ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda chet tili o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumyevropa CEFR talablari asosida talabalarga chet tillarni o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari va moddiy-texnik bazasi yaratildi¹. Oliy ta'lim tizimining filologik yo'nalishi oldida turgan muammolardan biri shundaki, ta'lim siyosati va amaliyoti, odatda, yuqoridan pastga yo'naltirilgan tashabbuslardan iboratdir. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar bevosita talabalarning qiziqishlari, imkoniyatlari, kelajakda ulardan kutilayotgan talablarga chambarchas bog'liq bo'lishi, mazkur shart-sharoitlar talabalarga oldinga ildam qadam bosish va o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniyatini yaratib berishi lozim. Bu borada, zamonaviy ta'lim metodlarining eng samaralilaridan biri – loyiha asosida o'rganish **project based learning (PBL)** metodi bo'lib, mazkur metod yordamida til o'rganuvchilar bo'lajak tadqiqotchilarga aylanishi, nafaqat o'z ona tilidagi muammolar yechimlarini topish, balki chet tilida ham sifatli va dolzarb ilmiy maqolalar yozish, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar va 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga, 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati² hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda o‘qitishni ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar (Project based learning) asosida tashkil etish P.Jamping, M.Maher, J.Venning, D.O.Maksuel, H.Steygelmeyer, E.J.Sammers, D.Kranmer, J.Hatti, H.Polat, L.Lukas, V.V.Berg, D.K.Meyer, J.Raislbak, F.Stroller, N.A.Biryukova, R.R.Jordan, J.Uilson, M.Uilmore³, S.Altun, L.Coruin, M.Galvan,

²O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvar va 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaati.

³ Junpeng P., Tungkasamit A. The continuing professional development of the assessment through research-based learning in higher education of Thailand // Procedia-Social and Behavioral Sciences. – Thailand, 2014. №43, 737-742 p. Maher M., Timmerman B., Hurst M., Gilmore J. Graduate Students' Descriptions of Research-Teaching Relationships across Academic Disciplines // Separating, Balancing, or Integrating Identities. Paper presented at the annual meeting of American Educational Research Association. – San Diego, 2009. 24-45 p. Venning J. Buisman-

U.Moylan, D.Palmer, J.Rachal va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan⁴.

Hamdo'stlik mamlakatlarida talabani tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish masalalari E.S.Glazirina, I.L.Bim, N.D.Galskova, M.I.Lukyanova, M.A.Kazakova, A.A.Shakirova, I.B.Dobrina, B.A.Buxbennder, V.P.Bespalko, M.Knoll, G.M.Kodjaspirova; talabani tadqiqot qobiliyati va shaxsiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligi N.A.Zabelina, I.A.Zimnyaa, M.Knoll, B.A.Kutergen⁵larning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mamlakatimiz olimlari G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, M.Djusupov, D.Djumanova, O.M.Musurmonova, G.N.Irmuhammedova⁶lar

Pijlman F. The development of an assessment matrix to promote student learning in postgraduate multidisciplinary research projects. – USA: Ergo, 2011. – 237 p. Maxwell D.O., Lambeth D.T., Cox J.T. Effects of using inquiry-based learning on science achievement for fifth-grade students // Asia-Pacific Forum on Science Learning and Teaching. №16(1). – Thailand, 2015. 106-136 p. Steigelmeyer H., Feldon D.C. Integrating teaching and research // A new model for graduate education. 56(2), BioScience. 2006. 159-165 p. Summers E.J., Dickinson G.A. Longitudinal investigation of project-based instruction and student achievement in high school social studies // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning, doi:10.7771/1541-5015.1313. –№6(1). – USA. 2012. 82-103 p. Cranmer D. Motivating High Level Learners. - London: Longman, 1996. – 310 p. Hattie J., Marsh H. The relationship between research and teaching: A meta- analysis // Journal Review of Educational Research. – Germany, 1996. 507-542 p. Polat H. The effect of management and monitoring knowledge systems on success and attitude of student in project-based learning. Firat University Social Sciences Institute. – Turkey, 2011. –148 p. Deem R. Lucas L. Learning about research: Exploring the teaching research relationship amongst educational practitioners studying in higher education. Teaching in Higher Education. – London, 2006. – 118 p. Bergh V.V., Mortelmans D., Spooren P., Petegem P.V., Gijbels D., Vanthournout G. New assessment modes within project-based education The Stakeholders // Studies in Educational Evaluation. – Belgium, 2006. 345- 368 p. Maurer T.W. Guidelines for authorship credit, order, and co-inquirer learning in collaborative faculty-student SoTL projects. – Georgia, 2017. – 117 p. Railsback J. Project based instruction: Creating excitement for learning. – USA, 2002. – 3601 p. Stoller F. Project work: A means to promote language content. In J.C. Richards W.A. Renandya (Eds.), Methodology in language teaching: An anthology of current practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 120 p. Biryukova N.A. Understanding Adult Learners as a Core Principle of Effective ESL–Educators. Review of European Studies; Vol. 7, No. 8; №7 // Canadian Center of Science and Education. Canada, 2015. 80–87 p. Jordan R.R. English for Academic Purposes. A Guide and Resource for Teachers. – Cambridge: Cambridge University Press. 1997. – 113 p. Willison J. Inquiring ape, Higher Education Research and Development. – Australia, 2013. – 865 p. Wilmore M., Willison J. Graduates Attitudes to Research Skill Development in Undergraduate Media Education. – Australia, 2016. – 213 p.

⁴Altun S. The effect of cooperative learning on students' achievement and views on the science and technology course // International Electronic Journal of Elementary Education, 2015. – №7, 451-467 p. Corwin L.A., Runyon C., Robinson A., Dolan E.L. The laboratory course assessment survey: a tool to measure three dimensions of research-course design // CBE—Life Sciences Education, №14(4). 2015. 29-37 p. Galvan M.E., Coronado J.M. Problem-based and project-based learning: Promoting differentiated instruction // National Teacher Education Journal. 2014. –№ 7(4). 30-42 p. Moylan W.A. Learning by project: Developing essential 21st century skills using student team projects // International Journal of Learning, 2008. –№15(9). 287-292 p. Palmer D. What Is the Best Way to Motivate Students in Science? Teaching Science // The Journal of the Australian Science Teachers Association. 2007. –№ 53(1), 38–42 p. Rachal J. R. Andragogy's detectives: A critique of the present and proposal for the future. Adult Education Quarterly, 2002. 52(3), 210–227 p.

⁵Глазырина Е.С. Аутентичность языкового материала как фактор повышения мотивации студентов при обучении иностранному языку для специальных целей, Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., Кошлыова В.В. Иностраный язык в системе школьного филологического образования (концепция) / Иностранные Языки в Школе. – 2009. – №1. – С. 4-8., Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: 2007. – 336 с. 72. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Фан ва технология, 2013–200с., Лукьянова М.И. Методика анализа личностно ориентированного урока по предметам основной школы // Завуч. – 2008. – № 2. – С. 13–22., Беспалько В.П. Теория создания и применения. М., 2006. – 188 с., Казакова М.А. Понятие и сущность андрагогического взаимодействия в отечественных и зарубежных исследованиях // Современные исследования социальных проблем. – 2017. – Том 8. № 1. – С. 61-79.

⁶Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. fan. dokt. diss. avtoref. – T., 2018. – 66 b. Ахмедова Л.Т. Личностно – ориентированный подход к

tomonidan oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha I.M.Tuxtasinov, F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.A.Nazarova, I.Yoqubov, N.M.Axmedova, M.Gulyamova, B.G.Jabborov, X.Mamatkulov, M.T.Irisqulov, Sh.S.Safarov, Sh.S.Ashurov, K.J.Riskulova va M.H.Lutfullayevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁷, biroq ularning ishlarida talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish alohida masala sifatida o'rganilmagan.

Chet tilini keyslar, muammoli loyihalar bilan o'rganishga doir bir qator izlanishlar mavjud, ammo oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot olib borish qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion metodlari va pedagogikaning dolzarb muammolari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda (PBL) loyiha asosida o'rganish metodini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining ta'lim olish jarayonida tadqiqot olib borish eng asosiy kompetensiyalardan biri ekanligini ko'rsatib berish va bunda loyiha asosida o'rganish metodining afzalliklarini tadqiq qilish;

mustaqil ta'lim yuklamalarini loyiha asosida o'rganish metodi orqali tashkillashtirishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish;

filologik ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy ruhdagi tadqiqotlar olib borishga tayyorlashda o'quv dasturlar va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash zaruriyatini asoslab berish;

loyiha asosida o'rganish metodi orqali talabalarining tadqiqot qobiliyati, tanqidiy tafakkuri, erkin fikrlashi hamda ijodiy yondashuv kompetensiyasini

современному обучению и воспитанию студентов высших учебных заведений Conference.Fledu.uz. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлири (факультетлари) талабалари учун дарелик қайта ишланган ва тўлдирилган 2 - нашри. -Тошкент: Ўқувчи, 2012. -432 б. Жабборов Б.Г., Зокирова Н.Д. Педагогларда креатив тафаккурни ривожлантириш технологиялари // Евразийский научный журнал. 2018. №2. Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования // «Русский язык за рубежом». -М., 2009. -№2. - С. 26-32. Ashurov Sh.S. "English language teaching methodology" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. -336 p. Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования: Дис. ... д-ра. фило. наук. – Т.: 2016. – 266 с. Мусурманова О Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истикболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. Ирмухамедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов (на старших курсах экономических ву-зов): Дисс... канд. Пед.наук..Т., 2008.С-157.

⁷ Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим журнали. – Т. 2016. –№ 66. –Б. 70–71., Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Т.: 2018. – 44 б., Назарова М.А. Инглиз тилидаги матнларни ўқишда талабаларни лексик полисемияга ўргатишни такомиллаштириш: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. –Т.: 2018. –45 б., Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С., Тил қурилиши: тахлил методлари ва методологияси илмий-нашр. 191 бет. «Фан» нашриёти. Тошкент. 2007 й. www.ziyouz.com.kutubxonasi, Ирисқулов М.Т. Чет тилларнинг ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим журнали. – Т.: 2016. – № 1. – Б. 77-83.

rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikaning eksperimental natijadorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti – filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o'rganish metodining ahamiyati, mazmuni, shakli va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minot PBL loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasining funksional bilim, konseptual hamda funksional mahorat kabi turlari kontenti, strukturasi va metodik tizimi maqsad va mazmunining mantiqiy uzviyligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

talabalarining tadqiqot qobiliyatini auditoriyada va auditoriyadan tashqarida rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy shakllari, yangi o'qitish metod va texnologiyalarining (produktiv, reproduktiv va kommunikativ-situativ mashqlardan foydalanish) fanlararo aspektda ijtimoiy-pragmatik omillarga integratsiyasi samaradorligi refleksiv o'quv resurslarini optimallashtirish orqali isbotlangan;

talabalarining moslashuvchanlik, izlanuvchanlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan autentik loyihalarning maqsadli, mazmunli, reproduktiv va operatsion faoliyatli tamoyillari kasbiy malaka va ko'nikmalar ifodalangan o'qitish usullarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

talabalarining mutaxassislikka mos va kasbga yo'naltirilganlik yondashuvi asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda rasmiy va norasmiy muloqot kompetensiyalari, ilmiy yozish va ilmiy fikrlash hamda tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi innovatsion metodlarni modifikatsiya qilish bo'yicha didaktik va metodik takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

filologik ta'lim yo'nalishi talabalarini ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borish asosida o'qitish materiallari, jumladan, **“Integrated language skills”** nomli o'quv qo'llanmada OTM talabalarini hamda professor-o'qituvchilari uchun ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borish tajribasini oshirishning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

loyiha asosida o'rganish metodini filologik ta'lim yo'nalishi mustaqil ta'lim yuklamasiga kiritish jarayonining didaktik ta'minoti **“Developing research skills through project based learning”** nomli monografiyada ishlab chiqilgan;

Mukammallashtirilgan ingliz tili darslarini tashkillashtirishda filologik ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun milliy loyihalar korpusi va loyihaviy tadqiqotlar

keyslari **“Developing research skills through project based learning”** nomli monografiyada o‘z ifodasini topgan;

filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyati, multifunksional moslashuvchanlik mahorati va ratsional yechimlarni qo‘llash kompetensiyalarini takomillashtirish, loyiha asosida o‘rganish metodini qo‘llash bo‘yicha batafsil ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar **“Integrated language skills with projects”** nomli elektron o‘quv dasturi, **“Kid inventors”** nomli elektron o‘quv dasturi, **“First step”** nomli uslubiy qo‘llanma va boshqa mualliflik ishlarimizda ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi hamda olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati loyiha asosida o‘rganish metodining kelib chiqish tarixi, davrlari, rivojlanish bosqichlari, loyiha asosida o‘rganish metodini darsda tashkillashtirish va baholash tamoyillari, uning boshqa muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish metodlari bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari, talabalarining o‘zlashtirish tizimlarining qiyosiy tahlili bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologik ta’lim yo‘nalishi tizimida loyiha asosida o‘rganish metodini ommalashtirish, sinovdan o‘tkazish va qo‘llashning amaliy bosqichlari, loyihaviy tadqiqotlarning kognitiv toifalari, mashqlar tizimi, metodik va didaktik ta’minotini yaratish, pedagoglar malakasini oshirish, loyiha asosida o‘rganish metodini nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashda o‘quv adabiyotlari yaratish joizligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar yuzasidan:

oliy ta’lim muassasalari talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta’minot (PBL) loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasining funksional bilim, konseptual hamda funksional mahorat kabi turlari kontenti, strukturasi va metodik tizimi maqsad hamda mazmunining mantiqiy uzviyligini samarali ta’minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalardan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-martdagi 684/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarining ilmiy va loyihaviy tadqiqotlarni virtual dasturlar asosida takomillashtirish, avtokompetensiya (texnologiyadan foydalana olish) tadqiqot olib borish kompetensiyalari takomillashtirilgan;

talabalarining tadqiqot qobiliyatini auditoriyada va auditoriyadan tashqarida rivojlantirishga qaratilgan o‘qitishning tashkiliy shakllari, yangi o‘qitish metod va

texnologiyalarini (produktiv, reproduktiv va kommunikativ-situativ mashqlardan foydalanish) takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalarga oid ilmiy xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-BHye-JP “CLASS: Development of thye interdisciplinary master program on computational Linguistis at central Asian universities” nomli innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-martdagi 683.30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur xulosalardan loyiha doirasida mustaqil ta'lim soatlarini samarali tashkillashtirish, mutaxassislik fanlarini darsdan tashqari soatlarda talab darajasida o'zlashtirilishi, ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borishga o'rgatish hamda bakalavr darajasini olgan talabalarni yosh tadqiqotchi sifatida tarbiyalash va ta'lim berishga doir yetti bosqichli vazifalardan iborat ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borish qobiliyatini oshirishga erishilgan;

talabalarning moslashuvchanlik, izlanuvchanlik, hamkorlikda ishlash, mustaqil ta'lim olish, kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan autentik loyihalarning maqsadli, mazmunli, reproduktiv va operatsion faoliyatli tamoyillari kasbiy malaka va ko'nikmalar ifodalangan o'qitish usullariga oid natijalaridan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-martdagi 717/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarga ilg'or darajadagi ingliz tilini o'qitishda loyiha asosida o'rganish metodi orqali milliy loyihalarni yaratish va tabiiy tilga ishlov beruvchi dastur (NLP tool)ni ishlab chiqish tavsiyalarining qo'llanilishi o'quv jarayonida talabalarga o'zbek xalqi milliy mentalitetini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini va turmush tarzini ulug'lovchi ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borishiga amaliy jihatdan yordam bergan;

talabalarning mutaxassislikka mos va kasbga yo'naltirilganlik yondashuvi asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda rasmiy va norasmiy muloqot kompetensiyalari, ilmiy yozish va ilmiy fikrlash hamda tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi innovatsion metodlarni modifikatsiya qilish bo'yicha didaktik va metodik takliflarga oid ilmiy natijalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining bir qator teleko'rsatuvlarida, xususan, 2022-yil 22-noyabr kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand” ko'rsatuvida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-dekabrda 01-12/463-son ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinlar ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lgan XXI asr mahorat ko'nikmalari, ularni takomillashtirish metodik ta'minoti haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 10 ta, shu jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik

dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, xalqaro konferensiyalarda 7 ta va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida 6 ta tezis, bundan tashqari, 2 ta elektron dastur, 1 ta uslubiy qo'llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili, talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda hozirgi zamonda keng miqyosda qo'llaniladigan metod – loyiha asosida o'rganish (**Project based learning**) metodining o'rni, talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning hozirgi holati, metodik, pedagogik va psixologik jihatlari, talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o'qitish metodi hamda ushbu metodning tarkibiy qismi hisoblangan boshqa zamonaviy yondashuvlar batafsil bayon etilgan.

“Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati” deb nomlangan birinchi bo'limda talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha turli sohadagi olimlar, metodistlar, pedagoglar, psixologlar hamda tilshunoslar tomonidan quyidagilar tadqiq qilinganligi aniqlandi: J.Jalolov loyiha asosida o'rganish metodi talabalarning kasbiy mahoratni shakllantirish, zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish, mutaxassislik bo'yicha mustaqil o'rganish, ta'limga ijodiy yondashish, hamkorlikda samarali ta'lim olish, muammolarni yechish strategiyalarini takomillashtirishini ta'kidlagan⁸. I.T.Irisqulov esa loyihaviy ta'lim talabaning yozish ko'nikmasini rivojlantirish, kuzatuvchanlik qobiliyatini oshirish, o'zgarishlarga moslashuvchanligini shakllantirish va ta'limdagi innovatsiyalarga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qilishini tadqiq qilgan⁹. G.X.Bakiyeva talabalar tadqiqotlar olib borish orqali ingliz tilida ijtimoiy muloqot qila olish, akademik ma'ruza qilish ko'nikmasini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimni amaliyotda faol qo'llash, fanlararo bog'liqlikni bilish hamda shaxsiy

⁸ Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2012. – 432 b.

⁹ Irisqulov A. Xorijiy tillarni o'qitishda lingvo-madaniy yondashuvning ahamiyati – Toshkent, O'zbekiston, 2006. – 189 b.

kompetentlikni oshirish imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'kidlagan¹⁰. Shuningdek, E.J.Summers o'z tadqiqot ishlarida loyiha asosida o'rganish metodi dars jarayonida talaba faol bo'lgan ta'lim metodi bo'lib, ta'lim oluvchini tadqiqotchi kadr sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynashini hamda loyiha asosida o'rganish orqali talaba mustaqil tarzda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish malakasiga ega bo'lishini tadqiq qilgan¹¹. Mazkur bo'limda, shuningdek, filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti, kontenti, tuzilishi, tasvir va xususiyatlari aniqlanib, ingliz tilini o'qitishda ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar olib borishning amaliy ahamiyati tadqiq qilingan va batafsil yoritilgan.

“Talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning metodik tadqiqi” deb nomlanuvchi ikkinchi bo'limda talabalarining tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini ta'minlash xususiyatlari ochib berilgan hamda ta'lim oluvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantirishda loyihaviy tadqiqotlar olib borish metodikasining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Bizning tadqiqotimizda filologik ta'lim yo'nalishi talabalarini loyiha asosida o'rganish metodi orqali xorijiy tillarni o'rganishda ta'lim jarayonini real hayotga bog'lashi, tadqiqotlar o'tkazish uchun maxsus savolnomalar tayyorlashni o'rganishi, hayot faoliyati uchun muhim bo'lgan qobiliyatlarni egallashi, shuningdek, jamoa bo'lib ishlash tushunchalarining mohiyati atroflicha ko'rib chiqilgan va o'quv jarayoniga tatbiq qilish xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur metodika oldindan belgilangan va kutilayotgan natijalar, ularga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni rejalashtirish bilan boshlanadi. Shu asnoda talabalar mavjud muammoli vaziyatlarga bir nechta yechimlar izlash va muvaffaqiyatli yakunga erishish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan loyihani amalga oshirish uchun vaqt me'yorlarining belgilanishi, mavzudan chekinish holatlarining oldini olish maqsadida mavzu chegaralarining o'rnatilishi, vazifalarning oldindan aniqroq rejalashtirilishi muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda talabalarining ingliz tilida bo'lajak olim va tadqiqotchilar sifatida kasbiy tayyorgarligi masalasi muhimligiga asosiy e'tibor yo'naltirilgan. Loyiha asosida o'rganish metodi orqali talabalarining funksional bilimi, konseptual mahorati, multifunksional mahorati, tanqidiy tafakkuri, mustaqillik darajasini oshirish, ta'limga ijodiy yondashish, ratsional yechimlarni qo'llash kabi XXI asr mahorat ko'nikmalarini qiyosiy, lingvopragmatik aspektda takomillashtirish eksperimental nazorat metodikasi uslubiy-didaktik yondashuvlari tadqiq qilingan.

“Talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o'rganish metodikasining didaktik imkoniyatlari” deb nomlanuvchi uchinchi bo'limda filologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o'qitish metodining ahamiyati hamda imkoniyatlari yoritib berilgan. Jumladan, loyiha asosida o'rganish metodidan mustaqil ta'lim soatlarini samarali tashkillashtirishda foydalanish; loyihalar yaratish asosida

¹⁰ Bakiyeva G., Iriskulov M., Russek M. Kan G., Taxirjanova S., Kambarov. N. Stay in touch, O'zDJTU.— Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 79 b.

¹¹ Summers E.J. A longitudinal investigation of project-based instruction and student achievement in high school social studies. 5015.1313. 2012. –№6(1). – USA, 82-103 p.

tadqiqot olib borishni o'rganish katta ahamiyatga ega. Integrallashgan til ko'nikmalarini o'z ichiga olgan bunday darslarda talabalar izlanish orqali o'rganishga yo'naltiriladi va loyihaviy tadqiqotlar sifatini yanada oshirish maqsadida bunday vazifalar o'quv yili davomida bajariladi, talabalar so'rovnomalar, tajriba-sinovlar asosida ma'lumot yig'adi va taqdimotgacha bo'lgan jarayonda ham, yakuniy taqdimotda ham o'z bilimlarini oshiradi¹². Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot ko'nikmasini rivojlantirish uchun tizimli va barqaror, puxta ishlangan metodlardan foydalanishni o'rgatuvchi amaliy tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali samaradorlikka erishiladi. Mazkur bo'limda, shuningdek filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim soatlarini zamon talabi asosida tashkillashtirishda loyiha asosida o'rganish metodi orqali tadqiqot kompetensiyasini o'zlashtirish bilan bog'liq ijtimoiy, pragmatik faktorlar ilmiy isbotlangan.

Dissertatsiyaning **“Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish metodologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalar tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning lingvodidaktik xususiyatlari, loyiha asosida o'rganish metodining imkoniyatlari va uning tarkibiy qismiga kiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda ularni tashkil etishning metodikasi, filologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan barcha bosqich talabalari uchun alohida ishlab chiqilgan metodik ta'minot, metodik dastur, metodik model hamda filologik ta'lim muassasalari talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodik shart-sharoitlari ilmiy talqin etilgan. Shuningdek, talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy, zamonaviy bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, ilmiy mutaxassis sifatida shakllantiruvchi loyihalarning ahamiyati yoritilgan.

Bobning birinchi bo'limi **“Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish mazmuni”** deb nomlanib, unda talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi va imkoniyatlari, zamonaviy ta'lim metodi – loyiha asosida o'rganishning amalda joriy etish yo'l xaritasi chizib berilgan. Jumladan, olib borilgan tajriba-sinov ishlarida loyiha asosida o'rganish metodining tarkibiy yondashuvlari; “Inquire based learning”, “Problem based learning”, “Content based learning”, “Design based learning”, “Case-based learning”, “Concept based learning”, “Phenomenon based learning”, “Flipped learning” kabi zamonaviy ta'lim yondashuvlarining xususiyatlari ochib berilgan. J.Uilson o'z tadqiqot ishlarida filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatining reproduktiv turini “Debate”, “Discussion”, “Presentation”, “Brainstorming”, “Cluster”, “Case study”, “Task-based method” kabi yondashuvlar orqali rivojlantirish samarali deb ta'riflaydi¹³. Talabalarining tadqiqot qobiliyatining variativ turini rivojlantirishda “Interviewing”, “Online/offline survey”, “Debate”,

¹² Wilkin C.L. Enhancing the AIS curriculum: Integration of a research-led, problem-based learning task // Journal of Accounting Education, vol. 32. no. 2. 2008. 185-199 p.

¹³ Willison J. Outcomes and uptake of explicit research skill development across degree programs, Office for Learning and Teaching. http://www.adelaide.edu.au/rsd/docs/pdf/RSD_degree_program_2014.pdf. Sydney. –2018. –P.201-220.

“Discussion” va “Questions-answer” kabi usullar orqali shakllantirish mumkin. Tadqiqot qobiliyatining qisman izlanishli turini rivojlantirish uchun esa “Qualitative research” va “Data analysis” kabi tanlovlar maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan¹⁴.

“Talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirishning mexanizmi va metodik ta’minoti” deb nomlanuvchi ikkinchi bo‘limda ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalar tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta’minoti va baholash mezonlari kurslar kesimida ishlab chiqilgan.

Loyihaviy tadqiqot ishlari to‘liq ingliz tilida olib borilishi sababli ushbu bosqichlarga qo‘shimcha ravishda, talabalarining o‘qish, yozish, gapirish, tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vazifalar qo‘shib boriladi. Metodni joriy etish bosqichida talabalarining til ehtiyojlarini qondirish uchun quyida berilgan dastur talabalarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va oshirishda samarali vosita bo‘la oladi. Berilgan jadvalda bunday loyihalarni ta’limda tashkillashtirishning bosqichlari, mazmuni va samarasi ifodalangan (1-jadvalga qarang):

1-jadval


Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘qitish metodi orqali rivojlantirish bosqichlari

Bosqichlar	Yo‘nalishlar	Ta’lim mazmuni	Shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan kompetensiyalar
1-2-bosqich talabalari	Til ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi loyihalar	Rasmiy va norasmiy taqdimot qilish, so‘zlashuv, ilmiy yozish, ilmiy maqolalarni o‘qib tushunish, autentik audio materiallarni tinglab tushunish, yangi so‘zlar va faol grammatika strukturalari ustida ishlash	Umumiy ingliz tilidagi ko‘nikmalarni va rasmiy va norasmiy og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirish
	Zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi ijodiy loyihalar	Hamkorlikda o‘rganish, ijodkorlik, bunyodkorlik, mustaqil o‘rganish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash va moslashuvchanlik	Umumakademik til ko‘nikmalarini, tadqiqot qobiliyatini va kasb olamida raqobatbardoshlikni o‘rgatuvchi ko‘nikmalarni takomillashtirish ustida ishlash
3-4-bosqich talabalari	Ilmiy-loyihaviy tadqiqotlar	Umumbashariy muammolarga yechim taqdim qiluvchi loyihalar ustida ishlash	Ingliz tilida dunyoqarashni, fikrlash qobiliyatini kengaytirish va ingliz tili orqali dunyoni o‘rganish qobiliyatini takomillashtirish
	Mutaxassislikka tayyorlovchi loyihalar	Mustaqil ta’lim soatlarida fanga doir mavzuga doir loyihalar olib borish va mavzuni mustaqil tarzda chuqur o‘zlashtirishga mo‘ljallangan ilmiy loyihalar ustida ishlash	Ingliz tilini puxta o‘zlashtirgan ekspert bo‘lish qobiliyatini takomillashtirish

¹⁴ Torres L., Jansen S. ‘Working from the same page: Collaboratively developing students’ research skills across the university’, Council on Undergraduate Research Quarterly, vol. 37, no. 1, 2016. –P 26-33.

Oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishiga o'qishga hujjat topshirgan abituriyentlarning til bilish darajasi B2 bo'lganda ular xorijiy til imtihonlaridan maksimal ball berilgan holda ozod etiladi. Loyiha asosida o'rganish metodi orqali talabalarga mustaqil ta'lim soatlarini samarali tashkil etish nafaqat talabalarning til bilish darajasini C1ga ko'tarish, balki ingliz tilida chuqur bilimga ega bo'lish hamda ingliz tilida loyihaviy tadqiqotlar olib borishga o'rgatadi. Natijada bakalavr bosqichining 2-kursida talabalar C1 darajaga yo'naltirilgan loyihaviy tadqiqotlar bilan birga, jahon mehnat bozorida raqobatbardoshlikka o'rgatadigan XXI asr mahorat ko'nikmalarini egallashga yo'naltiriladilar. O'z navbatida, 3-bosqich talabalar til bilish ko'nikmalari yetarlicha rivojlanadi hamda ingliz tilida dunyoviy bilim va ko'nikmalarni olishga doir umumbashariy muammolar ustida tadqiqot olib borishga va yechim taqdim qiluvchi loyihalar ustida ishlashga tayyor bo'ladilar. Bitiruvchi kurslarda bu metod mutaxassislikka oid ilmiy loyihalar ustida izlanish orqali tadqiqot qobiliyatini takomillashtirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, talabalar tomonidan o'rganilayotgan o'quv dasturlar va o'quv materiallari sifatini oshirish maqsadida adabiyotlarga milliy ruhdagi, milliy mentalitetimizni, madaniyatimizni, qadriyatlarimizni, urf-odatlar va turmush tarzimizni ulug'laydigan, vatanparvarlik hissini oshiradigan loyiha ishlari ilova qilinishi samaradorligi ushbu bo'limda ilmiy isbotlangan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirishning pedagogik modeli”** deb nomlanuvchi uchinchi bo'limida filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish bosqichlari, mazmuni, maqsadi va vazifalari, ijtimoiy zaruratdan kelib chiqib tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish malaka talablari, ta'lim metodlari, vositalari va bosqichlari ishlab chiqildi. Quyida keltirilgan pedagogik modelda maqsadli komponent ustuvor maqsadning mavjudligini, mazmunli komponent talabalar tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o'rganish metodidan foydalanish bosqichlari, tarkibiy yondashuvlarning samarali jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Pedagogik modelning tashkiliy komponenti OTM talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish muhitini ko'rsatishga xizmat qiladi. Modelda ko'rsatilgan natijali komponent talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishning mezonini va darajalarini ko'zda tutadi. Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarini reseptiv loyihalar (ma'lumotlarni o'rganish asosida olib boriladigan loyihalar), ijodiy loyihalar, bunyodkorlik qobiliyatlarini o'rgatadigan loyihalar, produktiv loyihalar (talabalar tomonidan mustaqil yaratiladigan loyihalar) va ilmiy loyihalar (mutaxassislikka tayyorlaydigan loyihalar) ustida maqsadli faoliyat olib boradi. Talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda reseptiv, produktiv va reproduktiv loyihaviy tadqiqotlar metodikasini takomillashtirish, talabalarning tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali qisman izlanishli, uzoq izlanishli va ijodiy tadqiqot olib borishning metodik ta'minot takomillashtirildi. Talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish xaritasi quyidagi modelda o'z ifodasini topgan (1-rasmga qarang):



1-rasm. Talabalar tadqiqot qobiliyatini takomillashtirishning metodik modeli

Dissertatsiyaning “**Filologik ta’lim yo’nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish bo’yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o’tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o’tkazish, tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Bobning birinchi bo’limi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari**” deb nomlanib, loyiha asosida o’rganish ta’lim metodi asosida talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari jarayoni ifodalangan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlar

№	Ta’lim muassasalari	Jami talabalar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	142	70	72
2.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	159	82	77
3.	Samarqand davlat chet tillar instituti	149	78	71
Jami:		450	230	220

Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo’lindi. Ajratilgan guruhlarda tajribaning tashkil qilinishi turlicha bo’ldi. Tajriba-sinov guruhida ishlab chiqilgan filologik ta’lim yo’nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishda loyiha asosida o’rganish metodi orqali chet tilini o’rgatishga doir tanlangan texnologiyalar amalda qo’llanildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish to’rt bosqichdan iborat bo’lib, ular tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlardir (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Tajriba-sinov bosqichlari tavsifi

№	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichi	-pedagogik diagnostika obyektlari belgilandi; -muammo aniqlandi va mavzular shakllantirildi; -tajriba-sinov maqsadi, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi; -tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi.
2.	Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi	-tajriba-sinov maydoni va ishtirokchilari tarkibi aniqlandi; -pedagogik jarayon tavsifi belgilandi; -tajriba-sinov ishlari metodik ta’minoti ishlab chiqildi; -tajriba-sinov ishlari tashkiliy ta’minoti ishlab chiqildi.
3.	Amaliy bosqich	-ta’kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari olib borildi; -tajriba-sinov ishlari guruhlarda bosqichma-bosqich amalga oshirildi.
4.	Umumlashtiruvchi bosqich	-tajriba-sinov ishlari natijasi algoritmi ishlab chiqildi; -tatbiq etish bosqichi amalga oshirildi.

Tashkiliy tayyorgarlik bosqichida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish kuni, vaqti, tajriba-sinov muddati, o‘quv material miqdori belgilandi va ishtirok etuvchilar tanlab olindi. Prognostik bosqichda aniqlangan muammo asosida metodik va didaktik ta’minot ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Ajratilgan darajalar tavsifi

№	Darajalar	Tavsifi
